



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHI QARORI

210100, Navoiy sh., Islom Karimov sh. 77 A, tel: (79) 229-62-80, e-mail: navoi@exat.uz, info@navoi.uz

2023 - yil 21 - dekabr

VI-65-122-5-0-K/23

Navoiy viloyati hokimligi

Qiziltepa tumanidagi "Xomrabit" aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 16-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi 295-sonli qaroriga muvofiq, Qiziltepa tumani hokimligi tomonidan tuman hududidagi "Xomrabit" aholi punkti nomini o'zgartirishga oid taqdim etilgan takliflarni muhokama qilib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qiziltepa tuman hokimligining tuman hududidagi "Xomrabit" aholi punkti (keyingi o'rinnarda – geografik obyekt) nomini qayta nomlash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.
2. Qiziltepa tumanidagi nomi o'zgartiriladigan geografik obyekt ro'yxatiga ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Viloyat statistika boshqarmasi (A. Toshnazarov), O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (D. Nishonov), viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A. Niyozov), mutasaddi hududiy davlat organlari va tashkilotlari mazkur qarorga muvofiq Qiziltepa tumanidagi nomi

o‘zgartiriladigan geografik obyektni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A. Tasbayev) nomi o‘zgaradigan geografik obyektdagi aholining fuqarolik pasportlariga, yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Qiziltepa tumani hokimi (B. Bobomurodov), Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (D. Nishonov), viloyat qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi boshqarmasi (A. Niyozov) bilan hamkorlikda nomi o‘zgartiriladigan geografik obyektni yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Q. Astonov), Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (D. Nishonov) hamda tuman va shahar hokimliklariga;

2023-yil 20-dekabrga qadar geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha hududiy komissiya a’zolari va mutaxassislardan iborat ishchi guruhi tuzgan holda viloyatdagi mavjud geografik obyektlar nomlarining ma’lumotlar bazasini qayta ko‘rib chiqish;

davlat reyestriga kiritilmagan mavjud shaharcha, qishloq, aholi punktlari hamda ularning tarkibiy qismlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining tegishli qarorlari bilan tasdiqlash hamda tasdiqlangan joy nomlarini davlat reyestriga kiritish choralarini ko‘rish;

amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob bermaydigan joy nomlarini o‘zgartirishda fuqarolar yig‘inida obyektning o‘ziga xosligi – mahalliy aholining tarixi, etnik va boshqa xususiyatlari muhokama etilganidan so‘ng tuman va shahar hamda viloyat komissiyalarida ko‘rib chiqilishini nazoratga olish, mahalla va ko‘chalarni nomlashda mahalliychilik, oshna-oq‘aynigarchilik, xizmat martabasini suiiste’mol qilishga yo‘l qo‘ymaslik, shaxslar, shuningdek tarixiy voqealar bilan nomlashda qonunda belgilangan

cheklovlarga qat'iy rioya qilinishi choralarini ko'rish topshirilsin.

7. Ushbu qaror "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalarida rasman e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimi o'rribbosari (J. Xodjayev) hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining ujtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M. Hamroyeva) zimmasiga yuklansin.

Sessiyada raislik qiluvchi



J.Hamrayev

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023-yil 21-dekabrdagi
VI-65-122-5-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Qiziltepa tumanidagi nomi o‘zgartiriladigan
geografik obyekt**

T/r	Geografik obyektning hozirgi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Izoh
1	Xomrabot aholi punkti	Xonrabot	<p>Rivoyatlarda aytishicha, Buxorodan Samarqandga va Samarqanddan Buxoroga qatnagan xonlar shu qishloq hududidagi xushmanzara joylarda Navro‘z bayramlarida haftalab dam olib o‘tishar ekan. Amir (xon) dam olgan joy Amirsupa deyilgan.</p> <p>Keyinchalik bu joyda qad rostlagan qishloq Xonrabot nomini olgan. Avvaliga “Xonrabot” deb aytilgan qishloq keyinchalik “Xomrabot” sifatida qo‘llanilgan.</p> <p>Yana bir haqiqat. Qadimda ayrim qabila boshliqlari ham o‘zlarini “xon” deb atashgan. R.Maq sudov. “Mahallam – faxrim” “Mahalla” nashriyot matbaa uyi. T; 2021.75b</p>